ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 236 sahifa,
25-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Academic and Translingual Competence as an Integrative Construct in Higher Education: a Theoretical Framework 10
Davronova Fotima Pirnazarovna

Ovqatlanish xulq-atvori buzilgan bemorlarning emotsional va shaxslilik xususiyatlarining klinik-psixologik tahlili 14
Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizim modeli 18
Melliyeva Dilfuza O'ralovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5K kompetensiyalarini baholash mezonlari va indikatorlari 24
Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna, Qodirov Zayniddin Zaripovich

Bo'lajak pedagoglarda stressli vaziyatlarda xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari 29
Olimova Firuza Aslonovna

Developing the Skill of Evaluating the Reliability of Information Sources in Teaching English 35
Sherimbetova Nasiba Ravshanbek kizi

Tarmoq texnologiyalari fanida sun'iy intellekt asosidagi web-platformaning didaktik imkoniyatlari 42
Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda sun'iy intellekt imkoniyatlari 48
Abdujabborova Dildora Saidmurot qizi

Pedagogik jarayonlar davomida talaba-yoshlar egallagan faol fuqarolikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati 56
Xabibulla Muratov Abduqodirovich

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda atrof muhitga munosabatini shakllantirishning zamonaviy usullari 65
Umarova Dildora Nizom qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli va bog'lanishli nutqini rivojlantirish hamda nutqiy qiyinchiliklarni erta aniqlashning pedagogik-psixologik asoslari 70
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida ochiq javobli PISA topshiriqlarining produktiv fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni 76
Xudayberdiyeva Muxayyo Karshiboyevna

Ta'limda interaktiv texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 86
Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi

Yosh kelin-kuyovlarning nikoh orqali kutuvlari va psixologik farovonligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 91
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

"Art-pedagogik qobiliyat" tushunchasining mohiyati va tarkibiy komponentlari 95
Bo'ltakova Roziya Xasan qizi

Pathogenetic Rationale for Personalized Therapy of Dentin Hypersensitivity in Patients With Erosive Tooth Lesions 99
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Zoirov Tulqin Elnazarovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona axborot tizimlarini tizimli tahlil qilish va modellashtirish 104
Ro'ziyev Bahromjon Rustam o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish mexanizmi va tarkibiy-funksional modeli 108
Berdimurotov Adxam Xayrulla o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari 113
Umirova Marxabo Abdimannobovna

O'zbek EFL sinflarida talabalarning og'zaki nutq ravonligini mikrointeraktiv sikllar asosida rivojlantirish..... 116
X. S. Malikova

Sun'iy intellektning xorijiy til o'rganuvchilarga yordami: imkoniyatlar va amaliy mashg'ulotlar 120
Ashurova Dildora G'afurovna

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasi va aralash ta'lim sharoitidagi talablari..... 124
Baxtiyorova Maxliyo Baxrom qizi

Refleksiv texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tafakkurini rivojlantirish 127
Xo'janiyozova Gulhayo Ilhomovna

Boshlang'ich ta'limda hikoya janridagi matnlarni o'qitishda STREAM texnologiyasidan foydalanish..... 131
Ahmedova Munisa Xo'sinboy qizi

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlashning korreksion-pedagogik texnologiyasi 137
Jo'rayeva Gulmiraxon Zufarjon qizi

Developing EFL Students' Academic Writing Skills Through Self-Directed Learning Strategies..... 141
Kayumova Gulnoz Abduxalilovna

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi 147
Mavlonova Shaxzoda Turg'unovna

Developing English Communication Skills Among Students in Non-Philological Higher Education Institutions Through Task-Based Learning 151
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna

Indicators for Evaluating and Monitoring the Quality of Foreign Language Education in General Secondary Schools 158
Muxtarova Shafoatbonu Adham qizi

Fizika fanini o'qitishda talabalarning texnologik kompetensiyasi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida... 164
Raxmankulova Dilora Gulomovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi asosida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni 169
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish 175
Uzokov Sherzod Xamidovich

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar: imkoniyatlar va istiqbollar..... 180
Akramhonova Maftunaxon Ma'murjon qizi

Mystical Images in the Poetry of Navoi and Mashrab 183
Mamasoliyeva Muslimaxon Alisher qizi

Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: tajriba-sinov natijalarining tahlili..... 188
Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish 193
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Abdullayeva Qirmizi Jumatayevna

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 198
Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna

Generative Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Pedagogical Challenges and the Development of Communicative Competence 202
Latofat Zokir kizi Raximdjanova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Международные модели подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию: сравнительный анализ ключевых компонентов 210
Янкина Эмиля Адыловна

Психологические механизмы формирования читательской мотивации у младших школьников 216
Мадаминова Самидабону Умидбековна

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi destruktiv ziddiyatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik vositalari 222
Elbekova E'zoza Jamshid qizi

Badiiy asarni neyropedagogik tahlil materiali sifatida qo'llashning metodik asoslari 227
Shoyimova Shoira Sanakulovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi 231
Toshturdiyeva Tursunoy Muhammadiyevna

KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mavlonova Shaxzoda Turg‘unovna
Farg‘ona davlat universiteti,
Chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)
E-mail: mavlonovashahzoda1975@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0259-7663

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiya tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi va ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalarga xorijiy til o‘qitishning o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab qilishi bilan belgilanadi.

Maqolada eshitish, teginish va harakatga asoslangan multisensor metodlar, taktil-audial mashqlar tizimi, screen-reader va audio dasturiy ta’minotdan foydalanish, hamkorlikda o‘qitish hamda nutqiy vaziyatlarni modellashtirish orqali kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik kuzatish, eksperiment, so‘rovnoma va o‘quvchilar bilimini baholash testlari qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan texnologiyani qo‘llash o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish va muloqot ko‘nikmalari sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlandi. Maqola xulosalari maxsus ta’lim muassasalari, inklyuziv sinflar o‘qituvchilari va metodistlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, inklyuziv ta’lim, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, multisensor metod, taktil-audial mashqlar, boshlang‘ich sinf, maxsus pedagogika.

Abstract: This article analyzes a pedagogical technology for developing English communicative competence in visually impaired primary school pupils. The relevance of the study is determined by the development of inclusive education and the need for specific methodological approaches to teaching a foreign language to children with visual impairments.

The article reveals multisensory methods based on auditory, tactile and kinesthetic perception, a system of tactile-audial exercises, the use of screen-reader software and audio materials, as well as peer-assisted learning techniques and the modeling of speech situations. Pedagogical observation, experiment, questionnaires and achievement tests were applied as the research methodology. The results of the experimental work showed that the application of the developed technology significantly improves the qualitative indicators of pupils’ listening, speaking and communication skills. The conclusions of the article are of practical importance for teachers of special educational institutions, inclusive classroom teachers and methodologists.

Key words: visually impaired pupils, inclusive education, communicative competence, English language, multisensory method, tactile-audial exercises, primary school, special pedagogy.

Аннотация: В статье анализируется педагогическая технология развития англоязычной коммуникативной компетенции учащихся начальных классов с нарушениями зрения. Актуальность исследования обусловлена развитием инклюзивной системы образования и необходимостью специфических методических подходов при обучении иностранному языку слабовидящих и незрячих детей.

В статье раскрываются мультисенсорные методы, основанные на слуховом, тактильном и кинестетическом восприятии, система тактильно-аудиальных упражнений, использование программ экранного чтения и аудиоматериалов, а также технологии взаимного обучения (peer-assisted learning) и моделирования речевых ситуаций. В качестве методологии исследования применялись педагогическое наблюдение, эксперимент, анкетирование и тестирование знаний учащихся.

Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что применение разработанной технологии существенно повышает качественные показатели навыков аудирования, говорения и общения учащихся. Выводы статьи имеют практическое значение для педагогов специальных учебных заведений, учителей инклюзивных классов и методистов.

Ключевые слова: учащиеся с нарушением зрения, инклюзивное образование, коммуникативная компетенция, английский язык, мультисенсорный метод, тактильно-аудиальные упражнения, начальные классы, специальная педагогика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim g'oyalarining amaliyotga tatbiq etilishi barcha o'quvchilar, jumladan, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun sifatli xorijiy til ta'limini tashkil etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. O'zbekiston Respublikasida maxsus va inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, maxsus pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish borasidagi davlat dasturlari ushbu yo'nalishdagi ilmiy-metodik izlanishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarda axborotning asosiy qismi eshitish, teginish va harakat orqali idrok etiladi. Shu sababli an'anaviy ko'rgazmali-matnli metodlar bu toifadagi o'quvchilar uchun samarasiz bo'lib, ularga xos bo'lgan idrok xususiyatlariga mos maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Kommunikativ kompetensiya-tinglab tushunish, gapirish, so'z boyligi va nutqiy vaziyatlarda mos harakat qilish ko'nikmalarining yig'indisi bo'lib, uni ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda shakllantirish maxsus metodik vositalarni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi-boshlang'ich sinf ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslashdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish; multisensor metodlarga asoslangan mashqlar tizimini loyihalashtirish; tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalarni statistik tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish inklyuziv ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy asosdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarori [1] maxsus va inklyuziv ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy bazasini belgilaydi hamda ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishning davlat siyosati darajasidagi ustuvorligini tasdiqlaydi.

Inklyuziv ta'limning nazariy-metodologik asoslari bir qator tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan.

M.I.Yo'ldosheva [2] inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda tahlil qilib, differensial yondashuvning zarurligini asoslaydi.

В.В.Хитрюк [11] pedagogning inklyuziv tayyorgarligi masalasini o'rganib, o'qituvchi kompetentligining o'quv jarayoni sifatiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi, bu esa ushbu tadqiqotda aniqlangan defektologik tayyorgarlik yetishmovchiligi muammosini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan bog'liq holda, Н.Н.Малофеев [12] Yevropa mamlakatlaridagi maxsus ta'lim tizimining evolyutsiyasini tahlil qilib, inklyuziv modelga o'tishning bosqichma-bosqich xususiyatini ko'rsatadi, bu esa O'zbekiston sharoitida ham bosqichli yondashuv zarurligini ko'rsatuvchi qo'shimcha dalil bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi masalasi F.R.Qodirova [3] tomonidan batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, muallif tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich tizimini taklif qiladi; ushbu tizim mazkur tadqiqotda ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun moslashtirilgan holda qo'llanildi.

D.A.Tursunov [5] ishlarida chet tili darslarida inklyuziv texnologiyalar hamda multisensor yondashuvning amaliy jihatlari ochib berilgan bo‘lib, bu manbalar tadqiqot uchun audio-lingual va taktil-didaktik mashqlar tizimini loyihalashtirishda metodik asos vazifasini o‘tadi.

Maxsus pedagogika va ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilarga ta’lim berish muammosi xorijiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan.

N.T.Rasulova [4] maxsus pedagogikaning umumiy nazariy asoslarini bayon etsa, Hallahan D.P., Kauffman J.M., Pullen P.C [6] istisno o‘quvchilar toifasiga tegishli ta’lim tizimini xalqaro tajriba asosida tahlil qiladi.

Hodapp R.M, Zigler E. [7] aynan ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilarga qaratilgan maxsus ta’lim modelini ishlab chiqqan bo‘lib, ularning tadqiqoti ushbu maqolada qo‘llanilgan taktil-audial mashqlar tizimining nazariy negizini tashkil etadi.

Council for Exceptional Children [12] tomonidan nashr etilgan amaliy qo‘llanma esa screen-reader va yordamchi texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha konkret tavsiyalar berib, tadqiqotning axborot-kommunikatsion texnologiyalar komponentini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning lingvodidaktik asosi sifatida S.D.Krashen [9] tomonidan ilgari surilgan tushunarli input (comprehensible input) nazariyasi va J.J.Asher [10] tomonidan ishlab chiqilgan Total Physical Response usuli alohida ahamiyatga ega.

S.D.Krashen [9] tilni o‘zlashtirish jarayonida ma’noga yo‘naltirilgan, tushunarli axborotning ustuvorligini asoslasa, J.J.Asher [10] harakat va nutqni bog‘lash orqali til materialini yodda saqlashning samaradorligini isbotlaydi; ikkala nazariya ham mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan multisensor texnologiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Shunday qilib, o‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim va maxsus pedagogika bo‘yicha nazariy asoslar, shuningdek, chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha alohida tadqiqotlar yetarlicha mavjud, biroq bu ikki yo‘nalishni - ya’ni ko‘rish qobiliyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aynan ingliz tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini - bir butun kompleks texnologiya sifatida birlashtirgan maxsus ishlar amalda kam uchraydi. Aynan shu bo‘shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024-2026 o‘quv yillarida bir qator umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
2) pedagogik kuzatish;
3) pedagogik eksperiment (tajriba va nazorat guruhlari asosida);
4) o‘qituvchilar va ota-onalar bilan so‘rovnoma o‘tkazish;
5) o‘quvchilarning tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini baholovchi test topshiriqlari;
6) natijalarni matematik-statistik qayta ishlash.

Ishlab chiqilgan texnologiyaning asosini quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etdi:

(a) audio-lingual mashqlar-tovush va intonatsiyaga asoslangan takrorlash faoliyati;
(b) taktil-didaktik materiallar-bo‘rtma harflar, relyefli kartochkalar va Brayl yozuvidagi kalit so‘zlar;
(c) harakatga asoslangan usul (Total Physical Response)-buyruq va so‘zlarni jismoniy harakat bilan bog‘lash;
(d) hamkorlikda o‘qitish-ko‘ruvchi va ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni juftlikda ishlashga jalb qilish;
(e) axborot-kommunikatsion texnologiyalar-ekran o‘quvchi (screen-reader) dasturlari va audio-matn resurslaridan foydalanish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba guruhida ishlab chiqilgan texnologiya asosida 12 haftalik mashg‘ulotlar tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodika bo‘yicha dars berildi. Tajriba boshida va yakunida o‘tkazilgan diagnostik testlar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi (o'sish, %)	Nazorat guruhi (o'sish, %)
Tinglab tushunish	27,4	9,8
Gapirish (dialogik nutq)	31,2	11,3
Leksik boylik	24,6	8,5
Nutqiy vaziyatga moslashuv	29,0	10,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish nazorat guruhiga nisbatan 2,5-3 barobar yuqori bo'ldi. Ayniqsa, dialogik nutq va nutqiy vaziyatga moslashuv ko'rsatkichlarida sezilarli farq kuzatildi, bu esa multisensor va hamkorlikdagi mashqlarning kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun matnga emas, balki tovush, teginish va harakatga asoslangan mashqlar tizimining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu xulosa xorijiy tadqiqotchilarning inklyuziv ta'lim sohasidagi ishlarida ilgari surilgan qoidalar bilan mos keladi: multisensor yondashuv nafaqat ko'rish qobiliyati cheklangan, balki barcha o'quvchilar uchun tilni chuqur va barqaror o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida o'qituvchilarning maxsus didaktik materiallar va Brayl yozuvidagi resurslar yetishmasligi, shuningdek, defektologik tayyorgarlikning yetarli emasligi kabi muammolar ham aniqlandi. Bu holat pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlariga inklyuziv metodika bo'yicha maxsus kurslarni kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Hamkorlikda o'qitish elementlarining kiritilishi nafaqat kommunikativ ko'nikmalarni, balki o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy moslashuv va o'zaro hurmat munosabatlarini ham rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu natija inklyuziv ta'limning nafaqat bilim, balki ijtimoiy-psixologik samarasi haqidagi qarashlarni yanada mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun audio-lingual, taktil-didaktik, harakatga asoslangan hamda hamkorlikdagi metodlarni uyg'unlashtirgan kompleks texnologiya yuqori samara beradi.

Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan texnologiyaning an'anaviy metodikaga nisbatan sezilarli ustunligini isbotladi. Tavsiya etilgan yondashuvni maxsus va inklyuziv ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish, shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida defektologik-metodik tayyorgarlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusi tadqiqotlarni o'rta va yuqori sinf o'quvchilari, shuningdek, boshqa nutqiy faoliyat turlari (yozuv, o'qish) doirasida davom ettirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.-Toshkent, 2020.
2. Yo'ldosheva M.I. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.-184 b.
3. Qodirova F.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.-Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.-156 b.
4. Rasulova N.T. Maxsus pedagogika asoslari: darslik.-Toshkent: O'qituvchi, 2020.-212 b.
5. Mavlonova Sh.T. Chet tili darslarida inklyuziv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Pedagogik mahorat ilmiy-metodik jurnali.-2023.-№4.-B. 45–51.
6. Tursunov D.A. Til o'rgatishda multisensor yondashuv // Xorijiy tillarni o'qitish muammolari.-Farg'ona, 2022.-B. 78-84.
7. Hallahan D.P., Kauffman J.M., Pullen P.C. Exceptional Learners: An Introduction to Special Education.-14th ed.-Pearson, 2019.-480 p.
8. Hodapp R.M., Zigler E. Special Education for Learners with Visual Impairments.-Cambridge University Press, 2020.-296 p.
9. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition.-Pergamon Press, 1982.-202 p.
10. Asher J.J. Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook.-7th ed.-Sky Oaks Productions, 2009.-190 p.
11. Хитрюк В.В. Инклюзивная готовность педагога: генезис, феноменология, концепция формирования.-Минск: БГПУ, 2015.-195 с.
12. Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа.-М.: Просвещение, 2018.-320 с.
13. Council for Exceptional Children. Assistive Technology for Students with Visual Impairments: Practical Guide.-CEC Publications, 2021.-112 p.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.